

ELLIPSIS VA SUBSTITUTSIYANING NAZARIY ASOSLARI

Abdullayeva Poshshajon Usmon qizi*Ma'mun universiteti, "Roman-german filologiyasi" kafedrası**ingliz tili o'qituvchisi*abdullayevaposhshajon97@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ellipsis va substitutsiya hodisalari haqida batafsil ma'lumot berilib, ularni yuzaga keltiruvchi omillar namunalar yordamida ko'rsatib beriladi. Shuningdek ushbu hodisalardan foydalanish holatlari keng tahlil qilingan va nazariy asoslari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Tilshunoslik, ellipsis, substitutsiya, og'zaki nutq, ixchamlik, grammatik vositalar, maqol.

Abstract: This article provides detailed information about the phenomena of ellipsis and substitution, also illustrates the factors that cause them with the help of examples. Moreover, it extensively analyzes the use cases of these phenomena and explains their theoretical foundations.

Key words: Linguistics, ellipsis, substitution, oral speech, diminutiveness, grammatical devices, proverb.

Kirish

Yozma va og'zaki matnda eng ko'p uchraydigan grammatik umumlashtiruvchi vositalardan biri ellipsis hisoblanadi. Ushbu hodisa haqida zamonaviy tilshunoslikda ham ko'pgina nazariyalar mavjud. Unga mashhur tilshunoslar turli xil qarashda bo'lganlar. Ellipsis hodisasi deyarli barcha tillar tilshunosligida o'rganilib, tahlil qilinadi. Ushbu hodisa haqida fikr bildirilganda ushbu atama asrlar davomida keng ko'lamli hodisalarga, so'zlar yetishmayotgandek ko'rinadigan har qanday vaziyatdan tortib muayyan matn konstruktsiyalarning ancha tor doirasiga nisbatan qo'llanilganligini anglash mumkin. U umumlashtiruvchi vositalardan biri bo'lib, uning asosiy xususiyati jumla ichida ayrim gap bo'laklarining tushirib qoldirilishidir. Lekin matnning ma'nosi tushunilishi yoki kontekstdan tiklanishi mumkin bo'lgan so'zlar yoki, iboralardir¹. Tilshunoslik tarixida ellipsis mavzusiga qiziqish katta bo'lib, ko'plab muhokamlarga sabab bo'lgan. Chunki unda shakl yo'q, biroq ma'no bor, ya'ni bitta so'zdan ham butun bir gapning mazmunini tushunish mumkin. Shuning uchun ham ushbu hodisa yuzasidan ko'pchilik tilshunoslar ilmiy ishlar olib borgan va tadqiqotlar hozirda ham davom etmoqda.

Substitutsiya tilshunoslikda keng tarqalgan hodisalardan bo'lib, u deyarli barcha tillarda mavjuddir. Almashtirish hodisasi bir tilda boshqa tillardagidan ko'proq va tez-tez foydalanilganligi sababli, almashtirish usullari ham tillarda farq qilishi

¹ Ellipsis: A survey of analytical approaches Jason Merchant, University of Chicago, 2013,- P.2

mumkin. U grammatik birlashtiruvchi vositalarning bir turi hisoblanib yillar mobaynida ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan va ushbu hodisani o'rganish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Substitutsiya-matndagi jumla yoki gapning leksik-grammatik darajadagi munosabatlarni saqlaydigan grammatik umumlashtiruvchi vositalarning bir turi hisoblanadi. U ma'lum bir elementni takrorlash o'rniga ishlatiladigan vosita turi bo'lib, o'rnini bosuvchi so'z yoki gap yordamida amalga oshiriladi. Substitutsiya so'z yoki gap o'rnini bosadigan tuzilmaviy funksiyaga ega. U turli xil bosqichlarda - so'z, so'z birikmasi, gap va hattoki matnlarda ham bo'la oladi. Uning asosiy vazifalaridan biri takrordan qochish, xabarni qisqartirish va uni o'quvchi uchun aniqroq qilishdan iborat. Almashtirishning yana bir vazifasi ma'lumotlarni tartibsiz holda ko'rsatmasdan gaplarni bog'lashdir.

Adabiyotlar sharhi

Ellipsis va substitutsiya hodisalari haqidagi nazariyalar to'g'risida ma'lumot keltirib o'tilganda hozirgi davrgacha va hozir ham ko'plab mashhur olimlar ushbu hodisalar yuzasidan ilmiy ishlar olib borayotgani ma'lum bo'ldi. Ellipsis ilk marotaba lingvistik hodisa sifatida rus tilshunosi O.I.Reunova tomonidan tahlil qilingan bo'lib, u o'zining "Ellipsis lingvistik hodisa sifatida" nomli kitobida, ushbu hodisaning namoyon bo'lish holatlari, uning badiiy matndagi o'rne kabi muhim muammolarga yechim topishga harakat qilgan.

Ellipsis haqida yaratilgan nazariyalardan yana biri ingliz funktsional grammatikasining yetuk mutaxassisi M.A. K. Hallidey tomonidan kiritilgan. Unga ko'ra ellipsis gaplarning ichki tuzilishi jihatidan emas, balki ularning orasidagi munosabatlar nuqtai nazaridan farqlanadi. Shuningdek tilshunos ellipsisni gapda substitutsiya bilan ham almashtirish mumkinligi haqida ma'lumot bergan. Olim ushbu vositaning 3 ta asosiy turini farqlaydi: nominal, predikativ va jumla ellipsis. M.A. K. Hallidey jumla ichidagi presuppozitsiyani tahlil qilmaydi va ellipsisga gaplar orasidagi munosabatlar nuqtai nazaridan yondashadi. U shunday xulosaga kelganiga asosiy sabab gaplar o'rtasidagi tuzilmaviy aloqalar mavjud emasligi bo'lib, shuning uchun ham bog'liqlikni o'rganish muhim ahamiyatga ega ekanligi haqidagi fikrni ilgari suradi.

Mashhur tilshunos Makkarti ellipsisga quyidagicha ta'rif beradi: "Ellipsis – bu odatda grammatik jihatdan gapdagi elementlarning tushirib qoldirilishini talab qilsa, so'zlovchilar yoki yozuvchilar matnning ma'nosini uning ma'lum qismlari tushib qolsa ham aniq tushunish mumkin deb hisoblaydilar"². Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, ellipsis nafaqat yozma nutqqa, balki og'zaki nutqqa ham aloqador hodisa hisoblanadi.

Tilshunos Biber ellipsis hodisasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Ellipsis- bu

² McCarthy, Michael. 1996. Discourse analysis for Language Teachers. Cambridge: CUP, 1996, -P.43

lingvistik yoki situatsional kontekstdan aniq qayta tiklanadigan elementlarning tushirib qoldirilish jarayonidir”³. Biber o‘quvchini gapda ellipsisdan foydalanmaslik gapni tuzilish yoki talaffuz jihatdan xato emasligiga ishontirishga harakat qiladi. Asl matn tarkibiga kirmagan burchak qavs ichidagi elementlar (elliptik elementlar) gapning ma’nosini o‘zgartirmasdan va grammatik tuzilma yaratmasdan qo‘shilishi mumkin, bu ellipsis belgilaridir.

Ellipsis bo‘yicha chuqur izlanish olib borgan keyingi buyuk ingliz tilshunosi Karterdir. U ushbu hodisaga shunday ta’rif beradi: “Ellipsis umumlashtiruvchi vositalaridan biri bo‘lib, uning asosiy xususiyati ma’nosi kontekstdan tiklanadigan va tushuniladigan so‘zlar yoki iboralarni tushirib qoldirishdir”. Ellipsis notiqar va yozuvchilar tomonidan, ayniqsa og‘zaki nutqda Karter ta’kidlaganidek, norasmiylik belgisi sifatida qo‘llaniladi⁴.

Substitutsiya bu biror birlikning o‘rniga uning ekvivalenti bo‘lgan boshqa elementni qo‘yish hodisasidir. Biror so‘z yoki gap tushirib qoldiriladi, lekin uni qoldirib ketmasdan o‘rniga boshqa so‘z bilan almashtiriladi. Mashhur grammatik olim Hallidey va Hasan nazariyalariga ko‘ra substitutsiya mustahkamlik mezonining asoslaridan biri hisoblanadi va grammatik umumlashtiruvchi qurilmalarining ikkinchi turini ifodalagan, ya’ni matnli bog‘lanish shaklidir. Almashtirish foydalaniladigan matn kontekstida matnning uyg‘unligiga erisha oladi, chunki u substitutsiya va almashtirilgan gaplarning qarama-qarshilik tizimiga bog‘liq bo‘lib, ular o‘rtasidagi umumiy munosabatga asoslanadi, bu esa matn qismlari o‘rtasida bir-biri bilan muvofiqlikka erishishga yordam beradi va matnshunoslar bu tasdiqlangan o‘zaro bog‘liqlikni ma’qul ko‘radilar. Tilshunos Begrande nazariyalari shuni ko‘rsatadiki, almashtirish bu -matnning ikkita komponenti yoki matn dunyosi o‘rtasidagi bog‘liqlik, ulardan ikkinchisi va birinchisi o‘rtasida bo‘lingan ma’lumotlar strukturasi faollashtirishga imkon beradi, birinchi element uning o‘rnini bosuvchi elementlardan biri bo‘lib, ikkinchisi esa o‘rnini bosadigan elementni almashtiradi⁵.

Grammatik vosita sifatida substitutsiya mashhur tilshunos Vaytxoll tomonidan ham o‘rganilgan bo‘lib, u ikkita grammatik vosita mavjudligini ta’kidlaydi. Birinchisi tanlash deb nomlansa, ikkinchisi esa substitutsiya nomi bilan keng tarqalgan. Tilshunos substitutsiyaning ikkita turini aytib o‘tadi. Dastlabki turi “Parallel almashtirish” bo‘lib, u ba’zida substitutsiya sifatida foydalaniladi. Keyingi turi esa sistematik substitutsiyadir. Bunday almashtirish to‘liq so‘zlar va bo‘sh so‘zlar bilan mos keladigan o‘rnini bosuvchi so‘zlarning maxsus sinfi sifatida qaraladi. Tilshunos Kolin substitutsiyani quyidagicha ta’riflaydi: “Almashtirish grammatik vosita bo‘lib,

³ Biber, Douglas (et. al.). 1999. Longman Grammar of Spoken and Written English. Harlow: Pearson Education Limited, 1999, - P.156

⁴ Carter, Ronald and McCarthy, Michael. 2006. Cambridge Grammar of English. Cambridge: CUP, 2006, - P.902

⁵ Linguistics of the Text: An Introduction to the Harmony of Discourse: Muhammad Al-Khattabi, The Arab Cultural Center, Casablanca - Morocco, 2nd Edition, 2006 AD

ikki shaklga ega. Birinchisi, muloqot jarayonida moslashuvchanlikni ta'minlovchi "sof strukturaviy almashtirish" bo'lsa, keyingi shakl qisqa birliklarni qo'llash orqali takrordan qochishiga yordam beradi".

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolani yoritish jarayonida turli xil metodlardan foydalanildi. Asosan, analiz, sintez, kuzatuv, lingvistik metodlardan tavsifiy, qiyosiy-tarixiy metodlar yordamida maqola mavzusi keng ochib berildi.

Tahlil va natijalar

Ellipsis sintaktik ekspressivlikni yuzaga keltiruvchi vositalar ichida keng tarqalgan turi bo'lib, u dialogik nutqlarda ko'p uchraydi, chunki dialog replikalaridagi doimiy bog'lanishlar bunga to'la imkon beradi. Badiiy matnlarda ellipsis tahlil qilinganda, qaysi gap bo'lagi ushbu hodisaga uchragani va qanday maqsad kuzatilganligi izohlab o'tiladi. Shuningdek, ushbu hodisa xalq og'zaki ijodi bo'lmish maqollar, hikmatli so'zlar va frazeologizmlarda ham kuzatilishi mumkin. Ellipsis hodisasi ayniqsa maqollarda juda keng tarqalgan. So'zlarning tushirib qoldirilishi natijasida maqollarda o'ziga xos ixchamlik va ifodalilik yuzaga keladi⁶.

1. Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming.

2. Ekin yerida ko'karar

Er- elida.

3. Daraxtni tomiri saqlar,

Odamni- do'sti

4. If you walk with good, you will achieve your goal.

If you walk with bad, you will be ashamed.

Ellipsis hodisasi o'zbek tilshunosligida ham keng foydalaniladi. Mashhur o'zbek yozuvchisi Abdulla Qahhor asarlarida ba'zan ixcham va sodda bo'lishi uchun ayrim maqollarning mazmunini qisqartirish maqsadida ham ellipsisdan foydalangan. Jumladan, "Asror bobo" hikoyasida: **Ko'ksingda o't bor, ho'l bo'lsa ham, quruq bo'lsa ham soching bir tekis yonsin** (You have grass on your chest, let your hair burn evenly when it is wet or dry); Bizni hamma narsadan mahrum qilmoqchi bo'lgan Gitler hali ham ko'p narsani yo'qotdi. Qadimgi qishloq qayerda? Agar sizda hali ham yonmaydigan yurak bo'lsa, uni eslasangiz, u yonadi. Ellipsis ko'proq og'zaki nutqqa xos bo'lib, uni tushirib qoldirish matn mazmuniga ta'sir qilmasligi va ixchamlikni ta'minlashga yordam beradi. Buni quyidagi namunada yaqqol ko'rish mumkin:

- Can I borrow your pen?

- Yes, but what happen to yours? - Bu gapda nominal guruhdagi

"yours"(sizniki) olmoshi elliptik bo'lib, elliptik bo'lmagan versiya "your pen" (sizning qalamingiz) bo'lishi kerak edi. Ushbu misollardan ellipsis norasmiy uslubga xos ekanligi va ot, olmosh va yordamchi fe'llar gaplarda tez-tez tushirib qoldirilishi va bu

⁶ J'yldoshev, M. Badiij matn lingvopojetikasi. Toshkent: Y'zbekiston.2019, -P.222

gapning mazmunini o'zgartirmasligini tushunish mumkin.

“Substitutsiya” so‘zining kelib chiqishi lotincha “substitute” fe‘lidan kelib chiqqan bo‘lib, biror element yoki vositani boshqasining o‘rniga qo‘yishni anglatadi. U almashtirish deb tarjima qilinadi va so‘z yoki iborani takrorlamaslik uchun ingliz tilida “so, one, did, do” kabi so‘zlar bilan ifodalanadi. Uni quyidagi na‘muna orqali batafsil o‘rganishimiz mumkin.

The flower seller cries, “Red flowers, red flowers, come and buy ones and present her”. Ushbu gapda ones so‘zi red flowers (qizil gullar) so‘zini takrorlamaslik uchun uning vazifasida qo‘llanilgan.

Gul sotuvchi aytdi: Qizil gullar, qizil gullar, keling va ularni sotib oling va unga sovg‘a qiling- Ushbu namunada ular olmoshi qizil gullar so‘zi o‘rnida qo‘llanilgan.

Substitutsiyaning eng aniq va sodda na‘munalari “yes” (ha) va “no”(yo‘q) so‘zlari bo‘lib ikkalasi ham uzun gaplarni, matndagi gaplarning ketma-ketligini ko‘rsata oladi. Boshqacha qilib aytganda, matn ichidagi substitutsiya bir elementni boshqasiga almashtirish vazifasini bajaradi. Bu ma‘nodagi emas, balki so‘z tarkibidagi munosabatdir, ya‘ni almashtirish lingvistik birliklar orasidagi munosabat hisoblanadi. Til tizimi nuqtai nazaridan bog‘lanish semantik darajadagi munosabat bo‘lsa, almashtirish bu -leksik-grammatik, grammatika va lug‘at darajasidagi munosabat yoki til shaklidir. Substitutsiya- bu asosan matn bilan chegaralangan og‘zaki munosabat shakli hisoblanadi. Buni quyidagi namunalardan orqali yana batafsil o‘rganishimiz mumkin:

My axe is too blunt. I must get a sharper **one**. -

You think Joan already knows? I think everybody **does**.

Ushbu namunalarda one so‘zi axe so‘zi o‘rnida, does so‘zi esa knows so‘zini ifodalash uchun foydalanilgan.

Substitutsiya bu o‘rin almashtirish vositasi bo‘lib, ushbu hodisadan tez-tez foydalanamiz, chunki so‘z yoki iborani ko‘p takrorlash matnning tuzilishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. “Would you like a cup of coffee?” – Yes, I would like a cup of coffee. Agar would so‘zida urg‘u bo‘lmasa, bu odatiy o‘zgarish emas.

“Yes please. I’d love one” dan foydalanilsa me‘yoriy alamshinuv bo‘ladi, one so‘zi a cup of coffee so‘zi o‘rnida qo‘llanilgan.

Xulosa

Ellipsis va substitutsiya hodisalari hozirgi davr tilshunosligida keng o‘rganilayotgan dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu hodisalar barcha tillar lingvistikasida uchraydi. Ularning asosiy xususiyatlari shundaki, ellipsis gap yoki matnda uning mazmunini saqlagan holda tushirib qoldirish hodisasidir, ushbu hodisa tilshunlik fanida ko‘plab muhokamalarga sabab bo‘lgan, chunki unda shakl yo‘q, biroq ma‘no mavjud bo‘lib, butun bir gap va matnning mazmunini bitta so‘z yoki jumla

orqali anglash mumkin. Substitutsiya hodisasi bu matnda yoki gapda soʻzlarni ularning muqobil ekvivalenti bilan almashtirish jarayoni hisoblanib, u nutqda takrordan qochishga va matnda mazmundorlikka erishishga yordam beradi. Ushbu maqolada ularning nazariy asoslari namunalar yordamida tahlil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Ellipsis: A survey of analytical approaches Jason Merchant, University of Chicago, 2013, - P.2
2. McCarthy, Michael. 1996. Discourse analysis for Language Teachers. Cambridge: CUP, 1996, -P.43
3. Biber, Douglas (et. al.). 1999. Longman Grammar of Spoken and Written English. Harlow: Pearson Education Limited, 1999, - P.156
4. Carter, Ronald and McCarthy, Michael. 2006. Cambridge Grammar of English. Cambridge: CUP, 2006, - P.902
5. Linguistics of the Text: An Introduction to the Harmony of Discourse: Muhammad Al-Khattabi, The Arab Cultural Center, Casablanca - Morocco, 2nd Edition, 2006 AD
6. Jyldoshev, M. Badiij matn lingvopojetikasi. Toshkent: Ўzbekiston. 2019, -P.222
7. Halliday, M.A.K. and Hasan, R. 1976. Cohesion in English. London: Longman